

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLBAYEV DONIYOR JURABOYEVICH

**PAXTA PNEVMOTRANSPORTI VENTILYATOR PARAMETRLARINI
BOSHQARISHNING MEXATRONIK TIZIMINI YARATISH**

05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)
по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Xolbayev Doniyor Juraboyevich

Пахта пневмотранспорти вентилятори parametrlarini boshqarishning
mehatronik tizimini yaratish..... 3

Холбаев Дониёр Журабоевич

Разработка системы мехатроники для управления параметрами
вентилятор пневмотранспорта хлопка..... 25

Kholbaev Daniyor Juraboyevich

Development of a mechatronics system for controlling the parameters of a
cotton pneumatic transport fan..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLBAYEV DONIYOR JURABOYEVICH

**PAXTA PNEVMOTRANSPORTI VENTILYATOR PARAMETRLARINI
BOSHQARISHNING MEXATRONIK TIZIMINI YARATISH**

05.02.03- Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/T2292 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya institutida huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) va Ziyonet Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamaxonov A'zam Abdumajitovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Djurayev Anvar Djurayevich
texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Anvar Muxamatxonovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Etakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «24» iyun soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy-7. Tel.: (69), 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 313-xona, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 528-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «14» iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil «24» iyun da № 115-raqamli reestr bayonnomasi).



Signature

R. M. Murodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.T. Bobojanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, dotsent

Signature

Q.M. Xoliqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

Signature

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasidan tayyorlangan tikuv-trikotaj mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori bo'lib, mahsulotning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda yer yuzida aholi sonining uzluksiz oshib borishi, aholining didi, imkoniyatlari va moda yo'nalishlarining tez o'zgarayotgani mahsulotning muayyan assortimentiga bo'lgan talabning keskin ortishi yoki pasayishiga olib kelmoqda. Bu holat, asosiy to'qimachilik xomashyosi hisoblangan paxta tolasiga bo'lgan talab ham o'zgarib borishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoning eng yirik paxta yetishtiruvchilaridan bo'lgan Xitoy, AQSh, Hindiston, Pokiston va Braziliya kabi mamlakatlar, birgalikda, jami paxta tolasining 70 foizini ishlab chiqaradi¹. Bu borada, jumladan, paxta tolasini ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda eng serxarajat, uzoq vaqt va katta mehnat resurslarini talab etadigan, kam rentabelli mahsulot hisoblangan paxta tolasining iste'mol xususiyatlarini yaxshilash va tannarxini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta va to'qimachilik sanoati mahsulotini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida mashina va uskunalarning ishchi organlari tomonidan kuchli ta'sir ko'rsatilishi, ishlab chiqarish bilan bir qatorda, xomashyoni terib olish, tashish jarayonlarida uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda resurs sarfini kamaytirishga qaratilgan keng miqyosdagi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Natijada, paxtaning dastlabki miqdor va sifat ko'rsatkichlari oshib, mahsulot tannarxi pasaymoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni yaratish, jarayonlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashga qaratilgan tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shuningdek, paxtani havo yordamida tashishda paxta chigiti va tolasining dastlabki sifat va miqdor ko'rsatkichlarini saqlash hamda energiya sarfini kamaytirish sohaning bugungi ahvoli va istiqbolini belgilab beruvchi dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish orqali paxta yetishtirish va uni chuqur qayta ishlashni markazlashtirish asosida yuqori sifatli va past tannarxga ega bo'lgan keng assortimentdagi to'qimachilik va yengil sa'noat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...to'qimachilik sa'noati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, sa'noat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish, sa'noat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish" vazifalari belgilangan². Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, paxtani pnevmotransport bilan tashishda uskunaning paxta mahsulotlari sifat ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan va kam energiya sarflaydigan ish rejimlarini ta'minlab beruvchi mexatronik tizimlarni yaratish va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish muhim masalalardan hisoblanadi.

¹Cotton: WorldStatistics. <https://www.statista.com>; <http://www.ICAC.org>.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni, 2017-yil 28-noyabrdagi “Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3408 sonli qaroriga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Pnevmotransport jarayoni nazariy va amaliy asoslari va ularni rivojlantirishga bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan G.Cherniy, G.Abramovich, A.Altshul, L.Loysyanskiy, D.Chisxolm, Yu.Shmuglevskiy, T.Karman, Dakh Hem, Donald W. Van Doorn, Dan S. Wise, Hans Oetiker, Richard D. Johnson va boshqalar.

Mamalakatimiz paxta xomashyosi va mahsulotlarini pnevmotransport yordamida tashishning fundamental, nazariy va amaliy masalalari hamda metodologik asoslarini yaratishga O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ulardan, B.A.Levkovich, R.G.Maxkamov, X.A.Raxmatullin, X.A.Ziyayev, R.Amirov, S.Boltaboyev, P.Baydyuk, B.M.Mardonov, S.Saidaxmedov, S.Qodirxo‘jayev, X.Axmedxodjayev, R.Muradov, M.Xojiyev, O.Sh.Sarimsaqov, U.X.Azizxodjayev, R.Fayziyev, A.Davidov, N.A.Ortiqov, S.A.Samandarov, A.Burxanov, A.A.Ismoilov, Z.O.Shodiyev, T.O.Shamsutdinov va boshqa olimlar olib borgan ilmiy tadqiqotlar natijasida paxtani pnevmotransportda tashish jarayonlari nazariyasi va texnika-texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Shu bilan birga, paxtani pnevmotransport bilan tashishda tola va chigitning dastlabki sifat ko‘rsatkichlarining pasayishi, uni tashuvchi havo tarkibida chiqib ketishi va nobud bo‘lishi hamda ish rejimlarini bir me‘yorda boshqarish imkoniyatlari bo‘lmagani uchun energetik xarajatlarning oshib ketishi kabi muammolar sabablari atroflicha ochib berilmagan va bu kamchiliklarni bartaraf etuvchi texnikaviy yechimlar ishlab chiqish muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti va Namangan viloyat hududiy innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F4-005 raqamli “Paxtani havo yordamida tashuvchi qurilma elementlari bilan paxtaning o‘zaro ta’sirlanishini ifodalovchi qonuniyatlarini o‘rganish va matematik modellashtirish” mavzusidagi fundamental (2012-2015yy.) va BA-AZ-010 raqamli “Paxta xomashyosi pnevmotransporti samaradorligini oshirishning

amaliy asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy (2016-2017) loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pnevmotransport ish rejimini boshqaruvchi mexatronik tizim ishlab chiqish orqali paxta mahsulotlarining dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlash va elektr energiyasi sarfini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

pnevmotransport samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil qilish;

paxta pnevmotransportida oqim parametrlarini bir meyorda boshqarishni ta'minlovchi mexatronik tizimning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

paxta pnevmotransportida oqim parametrlarini bir me'yorda boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;

paxta pnevmotransportida oqim parametrlarini bir me'yorda boshqarishni ta'minlovchi qurilmada amaliy tadqiqotlar o'tkazish orqali uning ratsional parametrlarini aniqlash;

takomillashgan pnevmotransport uskunasining ishlab chiqarish nusxasini tayyorlash va tadqiq qilish;

tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligini asoslash va ilmiy ish natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxta tozalash korxonalarida paxtani pnevmotransportda tashish jarayoni va paxta pnevmotransporti ish rejimini boshqarish qurilmalari olingan.

Tadqiqotning predmetini paxta pnevmotransporti ish rejimi va uni boshqarish qurilmalari konstruktiv va texnologik ko'rsatkichlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy va amaliy mexanika usul va vositalaridan, eksperimental tadqiqotlarda zamonaviy o'lchash asboblari, matematik statistika, eksperimentlarni rejalashtirish va optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta pnevmotransportida oqim parametrlarining pnevmotransport tizimidagi havo oqimining statik va dinamik bosimi hamda ventilyator nominal bosimi va havo sarfi hamda quvur uzunligi o'zgarishiga qarab chiziqli qonuniyat asosida o'zgarib borishi aniqlangan;

quvur boshida hosil qilinadigan havo oqimi statik bosimi va tezligining ventilyator elektr yuritgichidagi tok chastotasiga bog'liq holda o'zgarishi hamda kerakli havo bosimi va tezligini hosil qilish uchun zarur bo'lgan tok chastotasining qiymatlari aniqlangan;

paxtani tashish masofasiga qarab, quvur boshida hosil qilinadigan havo oqimi parametrlarining drossel holati va inverter qurilmasi beradigan tok chastotasiga bog'liq holda o'zgarishini hisobga olgan holda pnevmotransport uskunasining ratsional ish rejimlari aniqlangan;

paxta tozalash korxonalarida pnevmotransport ventilyatorining mahsulotni turli masofalardan tashishda zarur bo'lgan bosim va tezlik parametrlarini ta'minlash uchun

uzatilihi kerak bo'lgan tok chastotasini boshqaradigan Scada mexatronik tizimi va uning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta pnevmotransportining oqim parametrlarini boshqarish jarayoni tadqiqotlari natijasida kerakli ish rejimini yuqori aniqlikda ta'minlab bera oladigan, oqimni bir me'yorda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan paxta pnevmotransporti ish rejimini ratsional boshqarish mexatronik tizimi va uning dasturiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

paxtani turli masofalardan, turli ish unumida tashish jarayonlarida eng kam elektr energiya sarfi va yuqori havo bosimini ta'minlab beruvchi, paxta mahsulotlari dastlabki sifat ko'rsatkichlarini maksimal darajada saqlaydigan ratsional oqim parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida nazariy va tajribaviy izlanishlar natijalarining mutanosibli, tavsiya etilgan mexatronik tizim o'rnatilgan pnevmotransport uskunasi ishlab chiqarish sinovlari va mavjud pnevmotransport uskunalarini ko'rsatkichlariga solishtirish natijalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pnevmotransport quvurida paxta va havo harakati, paxtani tashuvchi pnevmotransport uskunasi ish rejimini boshqarish jarayoni matematik modellarining paxtani pnevmotransport bilan tashish jarayoni nazariy asoslarini muayyan darajada rivojlantirish va boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati paxta pnevmotransportining oqim parametrlarini boshqarish jarayonini o'rganish natijasida aerodinamik qarshiligi past va kerakli ish rejimini yuqori aniqlikda ta'minlab bera oladigan, oqimni bir me'yorda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexatronik tizim ishlab chiqilgani va ishlab chiqarishga joriy qilingani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani tashuvchi pnevmotransport uskunasining oqim parametrlarini boshqarish qurilmasi yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan natijalar asosida:

oqimni bir me'yorda o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexatronik tizim va uning dasturiy ta'minoti "O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi" tasarrufidagi korxonalarda, jumladan, "ART SOFT TEX CLUSTER" MCHJga qarashli "Pop paxta tozalash" korxonasida ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi"ning 2022-yil 23 dekabrda №02-22/903-sonli ma'lumotnomasi). Natijada paxta pnevmotransporti faoliyat radiusini 50-60 m ga oshirishga hamda paxta pnevmotransporti energiya sarfining 18 % ga kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertasiyaning ishining natijalari 8 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan,

5 tasi Respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta EHM uchun dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil qiladi.

Muallif dissertatsiyani tayyorlash va rasmiylashtirishda bergan qimmatli maslahatlari, ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari uchun, texnika fanlari doktori, professor O.Sh.Sarimsakovga chuqur minnatdorchilik bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxta pnevmotransporti uskunasi va uning elementlari konstruksiyasi bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar sharhi**" deb nomlangan birinchi bobi adabiyot manbaalarining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda xususan hozirgacha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida aniqlangan qonuniyatlar, amaliy natijalar paxtani qayta ishlash, shuningdek uni pnevmotransportda tashish yuz beradigan ayrim xodisalar, turli uzoqlikda joylashgan g'aramlardan, shuningdek, turlicha namlik va ifloslikdagi paxtani tashishda pnevmotransport oqim parametrlarini o'zgartirish holatlari, amaldagi oqim parametrlarini o'zgartiruvchi qurilmalar oqimni bir me'yorda o'zgarishini ta'minlashi va o'rnatilgan rejimlari tahlil qilingan.

Amalga oshirilgan tahlillar paxta pnevmotransporti tizimida oqim parametrlarini bir me'yorda o'zgartirish, yuqori aniqlikdagi ish rejimini o'rnatish imkonini beruvchi mexatronik tizimni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish zarurati mavjud ekani to'g'risida xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning "**Paxta pnevmotransporti ventilyator parametrlarini boshqarishning nazariy asoslari**" deb nomlangan ikkinchi bobida asosan nazariy ishlar amalga oshirilgan bo'lib, analitik hisob-kitoblarga ko'ra, paxtani pnevmotransportda tashish jarayoni uchun rejimlarni tanlash va turbulent rejimning o'ziga xos xususiyatlari va pnevmotransport uskunalarida paxtani tashishga ta'siri o'rganildi.

So'rilayotgan havo oqimini ham, purkalayotgan havo oqimini ham quvurlar yordamida istalgan tomonga yo'naltirish va zarur masofaga yetkazish mumkin. Markazdan qochma ventilyatorlarning konstruksiyalari juda ko'p. Jumladan, oddiy to'g'ri parrakli va egri parrakli, diskli, silindrik va yassi, shuningdek murakkab konfiguratsiyali parraklar va kameraga ega bo'lgan, parraklari aylanish yo'nalishi bo'yicha va unga teskari egilgan turlari mavjud.

Har bir geografik hudud atmosferasining o'zigagina xos bo'lgan zichligi bo'ladi. Bu zichlikni nominal zichlik, deb ataymiz.

Texnik adabiyotlarda havoning normal sharoitdagi temperaturasi $t = 0^{\circ}\text{C}$ va normal atmosfera bosimi $P_{atm} = 101,325 \text{ kPa}$ (750 mm simob ustuni) bo'lganda havo zichligi $\rho_{nn} = 1,29 \text{ kg/m}^3$, standart sharoitda esa ($P_{atm} = 101,325 \text{ kPa}$ namligi $W = 50\%$; temperaturasi $T = 20^{\circ}\text{C}$ da $\rho_{ns} = 1,2 \text{ kg/m}^3$ ga teng ekani ko'rsatilgan.

Bizning mamlakatda havodagi namlik, temperatura va bosimi o'ziga xos bo'lib, ular yil fasllari va ob-havoga bog'liq. Biz 2021-yil oktabr oyida amalga oshirgan o'lchovlarda havo temperaturasi $T = 20^{\circ}\text{C}$, bosimi $P_{atm} = 735 \text{ mm}$ simob ustuni yoki 98 kPa , $W = 45\%$; namlik bo'lib, olib borgan hisoblashlarimiz havoning nominal zichligi $\rho_n = 1,17 \text{ kg/m}^3$ ga teng ekanini ko'rsatdi.

Havo amaldagi zichligining nominal qiymatdagi ρ_n har qanday chetlanishi uning zo'riqishiga olib keladi:

$$\rho_a > \rho_n \quad (1)$$

bo'lsa havoda zichlangan havo muhiti yoki ortiqcha bosim muhiti,

$$\rho_a < \rho_n \quad (2)$$

bo'lsa siyrak havo muhiti yoki past vakuum muhiti yuzaga keladi.

Tengsizlikning har ikki tomonini ρ_n bo'lsak:

$$\frac{\rho_a}{\rho_n} = k_3 > 1 \quad (3)$$

bo'lsa, ortiqcha bosim (zichlanish) muhiti,

$$\frac{\rho_a}{\rho_n} = k_3 < 1 \quad (4)$$

bo'lsa past vakuum muhiti hosil bo'ladi. Bu yerda k_3 - havoning zo'riqish koeffitsenti. Zo'riqish koeffitsenti, tushunchasi va koeffitsentning kiritilishi nazariy ishlarda jarayon tahlilini amalga oshirishni osonlashtiradi.

Dinamik bosim bir-xil kesimli quvur uchun o'zgarmas, deb qabul qilinishi mumkin, sababi havo tezligi quvur uzunligi bo'ylab kam o'zgaradi. Ammo, statik bosim quvur kesimi va uzunligiga bog'liq ravishda katta miqdorlarda o'zgaradi. Drosseldan keyingi bosim quvurning uzunligi va ko'ndalang kesim bo'yicha taqsimlanadi va ko'ndalang kuchlar R_{st} statik bosimni, bo'ylama kuch R_d dinamik bosimni hosil qiladi:

$$P_d = \frac{K_b \cdot F_a}{f_q} = \frac{K_b \cdot 0,25 \cdot P_n \cdot \pi d_v^2}{\left(\frac{\pi d_q^2}{4}\right)},$$

$$P_{st} = \frac{K_k \cdot F_a}{(L_{st} \cdot L_q)} = \frac{K_k \cdot F_a}{(\pi d_k \cdot (1+L_k))} = \frac{K_k \cdot 0,25 \cdot P_n \cdot \pi d_v^2}{(\pi d_k \cdot (1+L_k))}.$$

bu yerda: K_b va K_k – mos ravishda, bo'ylama va ko'ndalang kuchlarga bog'liq proporsionallik koeffitsentlari; F_{ab} va F_{ak} – bo'ylama va ko'ndalang kuchlar; d_v va d_k – ventilyator bo'g'zi va quvur diametrlari; L_k va L_t – quvurning umumiy va joriy uzunliklari.

Shakl almashtirish va qisqartirishlardan so'ng quyidagi tenglamalarni hosil qilamiz, dinamik bosim uchun:

$$P_d = K_b \cdot P_n \left(\frac{d_v}{d_q}\right)^2, \quad (5)$$

statik bosim uchun:

$$P_{st} = 0,25 \cdot K_k \cdot P_n \frac{d_v^2}{d_q \cdot (1+L_k)}; \quad (6)$$

Proporsionallik koefitsentlari:

$$K_b = \frac{P_d}{P_n} \cdot \left(\frac{d_v}{d_q}\right)^2, \quad (7)$$

$$K_k = 0,25 \frac{P_{st}}{P_n} \cdot \frac{d_v^2}{d_q \cdot (1+L_k)}; \quad (8)$$

K_b va K_k koefitsentlarni aerodinamik o'lchovlar yordamida aniqlash mumkin. Tenglamalarga e'tibor bersak:

$$K_k < K_b < 1, \quad (9)$$

bo'lishini bashorat qilishimiz mumkin. Chunki, quvurning ichidagi statik bosim doimo nominal bosimdan kichik, dinamik bosim esa statik bosimdan ham past qiymatga ega bo'ladi. Shuningdek, mavjud ventilyatorlarda $d_v > d_q$, ya'ni, ventilyator bo'g'zi diametri doimo quvur diametridan katta, ba'zi hollarda unga teng bo'lishi mumkin.

Statik bosim esa, ventilyator oldida uning nominal bosimiga teng bo'lib, K_k -ko'ndalang kuchlar koefitsentining katta qiymatlarida pastroq intensivlik bilan, kichik qiymatlarda esa yuqoriroq intensivlikda ventilyator oldidan quvur boshiga qarab kamayib boradi. Yuqorida keltirilgan tenglamalar quvur parametrlari va ventilyator nominal bosimiga qarab, quvurdagi havo oqimining dinamik va statik bosimlarini aniqlash imkonini beradi.

Endi, pnevmotransport uskunasi ichidagi aerodinamik jarayonlarni ventilyator ishiga bog'liq holda o'rganishga harakat qilamiz.

Pnevmotransport qurilmasi tashqi atmosferadan o'zining tarkibiy elementlari vositasida ajralgan yopiq muhit (bo'shliq) bo'lib, havo va material shu bo'shliq ichida harakatlanadi.

Ventilyatorning elektromotori sarf qilayotgan quvvat ventilyator valida burovchi moment M ni hosil qiladi va ventilyator parraklarini muayyan n chastota bilan aylanishiga olib keladi:

$$N = M \cdot \frac{n}{9550}. \quad (10)$$

Parraklarning aylanish tezligi chastotaga bog'liq. Quyidagi:

$$\omega = \frac{\pi n}{30} \rightarrow v = \omega \cdot \frac{d}{2} = \frac{\pi n}{60} d \rightarrow n = \frac{60v}{\pi d}$$

bog'lanishlardan kelib chiqib, (10) ni shunday yozish mumkin:

$$N = M \cdot \frac{60v}{3.14 \cdot 9550} = M \cdot \frac{v}{d} \cdot 2 \cdot 10^{-3}. \quad (11)$$

Burovchi moment M ventilyator parragini aylantiradi. Parraklar esa, aylanish natijasida havo zarralarini surib, havo oqimi va bir tomonda so'ruvchi (tortuvchi), ikkinchi tomonda itaruvchi (purkovchi) kuchni vujudga keltiradi, natijada havo massasi bir joydan ikkinchi joyga, muayyan masofaga ko'chadi, ish bajariladi. Fizik ma'noda, moment va ish o'lchov birliklari bir xil bo'lib, bajarilgan ishni ventilyator parraklarini burovchi momentning tekislikdagi yoyilmasi, deb qarash mumkin. Bunda, ventilyator parraklari bajargan ish muayyan massadagi jismni muayyan masofaga ko'chirish bilan ifodalanadi. Buning uchun zarur bo'lgan kuch aerodinamik

kuch bo‘lib, uni ta‘sir masofasiga ko‘paytirib, bajarilgan ishning ifodasini olish mumkin:

$$A = F_a \cdot dl.$$

Aerodinamik kuch, o‘z navbatida havo bosimi natijasida yuzaga keladi. Bu safar faqat dinamik bosimni emas, balki to‘liq bosimni hisobga olamiz:

$$F_a = P \cdot (0.25\pi \cdot d^2 + \pi \cdot d \cdot dl), \quad (12)$$

Boshqa tomondan, havo tezligi havo sarfidan kelib chiqadiki:

$$v = \frac{Q}{f} = \frac{4 \cdot Q}{\pi \cdot d^2}, \quad (13)$$

Topilganlarni quvvat tenglamasiga qo‘ysak, quyidagini olamiz:


$$N = 8 \cdot P \cdot Q \cdot k_p \cdot 10^{-3}, \quad (14)$$

bu yerda, k – parametrik kattalik:

$$k = \left(\frac{0.25}{d} + \frac{dl}{d^2} \right) dl$$


bu yerda qarshilik kuchlari hisobga olinmadi. Shuningdek, tenglamalar pnevmotransportga tashiluvchi mahsulot berilmagan holat uchun chiqarildi. Shu holatni VS-10M va VS-12M ventilyatorlar misolida nominal bosimning $R_n = 5 \text{ kPa}$ va 6 kPa ; $d_q = 0.4 \text{ m}$, quvur uzunligi 100m gacha, havo sarfi $Q = 3$ va $6 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lganda kompyuterda Maple 2020 dasturi yordamida tahlil qilindi. Tahlil natijasida olingan, ventilyator sarf qiladigan quvvatning quvur uzunligiga bog‘liq ravishda o‘zgarishi 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.

Kichik o‘lchamdagi quvurlarda esa buning aksini kuzatish mumkin. 2-rasmda VS-10M ventilyatori misolida quvur diametri 450 mm; 400 mm, 350 mm bo‘lgan hollarda quvur uzunligining ortishining quvvat sarfiga ta‘siri grafiklari keltirilgan. Bu yerda yuqoridagi qonuniyat qaytarilmoqda. Faqat, bu erda havo sarfi va bosimi nisbatan past bo‘lgani sababli sarf qilinayotgan energiya miqdori kamroq ekani ko‘rinadi.



1-rasm. VS-12M ventilyatori misolida quvur uzunligi ortishining quvvat sarfiga ta'siri

- 1- quvur diametri 450 mm;
- 2- quvur diametri 400 mm;
- 3- quvur diametri 350 mm



2-rasm. VS-10M ventilyatori misolida quvur uzunligi ortishining quvvat sarfiga ta'siri

- 1- quvur diametri 450 mm;
- 2- quvur diametri 400 mm;
- 3- quvur diametri 350 mm

Grafiklarga e'tibor berilsa, faqat havoning o'zi harakatlenganda ham tashish masofasining ortishi bilan ventilyator talab qiladigan quvvat intensiv ravishda ortib borishini ko'rish mumkin.

Shuningdek, quvur diametrining katta qiymatlarida quvvat sarfi katta, kichik diametrli quvurlarda esa nisbatan past. Buning sababi, katta o'lchamdagi quvurlarda birlik masofaga to'g'ri keladigan havo massasi katta va uni tashish uchun nisbatan ko'p energiya sarflanadi.

Pnevмотransport tizimlarida kerakli oqim parametrlari drossellar yordamida ta'minlanadi. Drossellash usuli, bu katta havo bosimi va sarfini oqim yo'liga qarshilik o'rnatish hisobiga kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun bu usulda energiya sarfi yuqoriligicha qoladi. Shuningdek, bu usulda havo tezligi va bosimini yuqori aniqlikda va bir me'yorda o'zgarishini ta'minlab bo'lmaydi. Shunga ko'ra izlanishlarimizda invertor yordamida ventilyator parametrlarini, ya'ni parraklari aylanishlari sonini o'zgartirish yo'li bilan boshqarish usulini tanladik.

Mamlakatimizga keltirilayotgan invertorlar asosan, Xitoyda ishlab chiqarilgan bo'lib, ular elektr yuritgichlar rotori aylanish chastotasini o'zgartirish bilan birga, bir qancha qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi:


1. Elektr yuritgichlarni ortiqcha yuklanish va qizib, kuyishdan himoya qiladi;
2. Invertor orqali ulanganda motorda ulanishdagi yuqori qarshilik momenti yuzaga kelmaydi va katta tok kuchi talab etilmaydi. Invertor motor rotorini asta-sekin tezlashtirish yo'li bilan aylantirib, kerakli aylanishlar soniga yetkazadi;
3. Invertor elektr toki chastotasini asta-sekinlik bilan boshqarish va kerakli ish rejimini osonlik bilan tanlash va ta'minlash imkonini beradi;
4. Invertorda mahsulotni tashish jarayonida havo oqimi parametrlarini nazorat qilib, boshqarib turish imkoniyati mavjud;
5. Zamonaviy invertorlarda xavfli holatlarning oldini olish, shunday holatlar yuzaga kelganda xabar berish, ogohlantirish va avariya holatlarida tizimni tok manбайдan uzib qo'yish funksiyalari ham bor.

Xulosa qilib aytganda, paxta tozalash korxonalarida pnevмотransportni yuritish qismi uchun invertor qurilmasidan foydalanish davr talabiga aylandi, desak, noto'g'ri bo'lmaydi.

Paxta pnevмотransportida foydalaniladigan ventilyatorlar **30 – 90 kVt** ni tashkil qilishini hisobga olsak, invertor bilan elektromotor qiymati 20% ga ortadi. Ammo, shuning o'zi bilan elektromotor ortiqcha kuchlanish va kuyib qolishdan to'liq himoyalanaadi. Shuningdek, elektromotorning ekonom rejimini aniqlash va shu rejimda ishlatish, tashish jarayoni parametrlarining o'zgarishini nazorat qilish va boshqarish imkoniyati yuzaga keladi. Pnevмотransport tizimi ventilyatorining invertorli mexatronik tizim bilan ulanish sxemasi 3-rasmda keltirilgan.

Ish jarayonida elektr toki manbaiga ventilyator 4 elektromotori invertor 1 orqali ulanadi. Invertor ventilyatorni asta-sekinlik oshib boruvchi elektr toki bilan ta'minlaydi. Tokka ulangandan 15-20 sekund o'tgach ventilyator to'la (maksimal) aylanishlar soniga erishadi. Ventilyator ishga tushgach, suruvchi quvurdan ventilyatorga havo oqimi kirib keladi va chiquvchi quvurdan keyingi qurilmaga

o‘tadi. Mexatronik tizimning naqadar samara berishini aniqlash uchun amaliy izlanishlar olib borish talab etiladi.



3-rasm. Pnevмотransport tizimi ventilyatorining inverterli mexatronik tizim bilan ulanish sxemasi


1-invertor shkafi; 2-elektromotor; 3-mufta; 4-ventilyator; 5-quvur.

Dissertatsiyaning **“Paxta pnevмотransporti ventilyator parametrlarini boshqarish mexatronik tizimi va amaliy tadqiqotlar natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobi havoni bir me’yorda boshqarish imkonini beradigan mexatronik tizim samarali ishlashini asoslash va rejali eksperimentlar yo‘li bilan eng past va pnevмотransport uskunasi ta’sir radiusi eng yuqori bo‘ladigan parametrlar aniqlandi.

Paxta pnevмотransporti asinxron elektr dvigatelinii matematik modellashtirish uchun Matlab dasturiy muhitiga kiritilgan Simulink paketida amalga oshirildi. Simulink-bu grafik simulyatsiya muhiti bo‘lib, u yo‘naltirilgan grafikalar ko‘rinishidagi blok-diagrammalardan foydalanib, diskret, uzluksiz va gibridd, chiziqli bo‘lmagan va uzlukli tizimlarini o‘z ichiga olgan dinamik modellarni yaratishga imkon beradi. Simulink interaktiv muhiti elektrodinamika, mexanik va gidravlik tizimlarni modellashtirish uchun tayyor blok kutubxonalaridan foydalanishga imkon beradi, shuningdek boshqaruv tizimlari, raqamli aloqa vositalari va real vaqtda qurilmalarni ishlab chiqishda rivojlangan modelga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydi. Ushbu grafik muhit yetarli aniqlik bilan, bizning holatimizda, chastota o‘zgartirgich bilan boshqariladigan asinxron elektr dvigatelinii modelini yaratishga imkon beradi.


Paxta pnevмотransporti asinxron elektr dvigatelinii chastota o‘zgartirgich bilan boshqarish modeli 4-rasmda keltirilgan.

Barcha parametrlarni o‘rnatilgandan so‘ng, paxta pnevмотransporti asinxron dvigateli valini kuch momenti M_c natijalari olinadi. Simulyatsiya tahlili va eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko‘ra (ma’lumotlarni grafik ko‘rinishini 5 va 6 - rasmlarda ko‘rish mumkin) model va eksperimental ma’lumotlar o‘zaro yaqin (5 va 6 rasmlarga qarang), Simulink muhitida qurilgan chastota o‘zgartirgich–asinxron dvigatel tizimining matematik modeli, statik rejimlarni yetarlicha aniqlik bilan tavsiflaydi. Nominal darajaga yaqin rejimlarda matematik modellashtirish yordamida olingan dvigatelning mexanik xususiyatlarining xatosi 5% dan oshmaydi.




4- rasm. Paxta pnevmotransporti asinxron elektr dvigatelini chastota o'zgartirgich bilan boshqarishni Simulink modeli

Shunday qilib, chastota o'zgartirgich elektr dvigatelining laboratoriya stendida o'tkazilgan tadqiqotlarda olingan ma'lumotlarga ko'ra tok kuchining ortishi bilan ventilyator validagi burovchi moment ortib boradi va tok chastotasining katta qiymatlarida past, kichik qiymatlarida yuqori burovchi moment yuzaga keladi. Bunda, Simulyatsiya tahlili va eksperimental tadqiqotlar natijalarining farqi 3-5% dan oshmaydi.



5- rasm. Simulink muhitida paxta pnevmotransporti dvigatel vali kuch momentining tok kuchi, va chastotaga bog'liqlik grafigi




6- rasm. Model va eksperimental ma'lumotlarni taqqoslash grafigi ko'rinishi

Simulink muhitida asosiy boshqaruv oynasining "Zapustit" menyusidan "Redaktor mnemosxem" bo'limi ishga tushirilishi natijasida vizual ko'rinishdagi grafik ob'ektlardan foydalanish mumkin. Ushbu grafik ob'ektlar tarmoq o'zgaruvchilarining holati orqali grafik rejimda ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Foydalanuvchi uchun kerakli grafik rejim chizib loyihalanadi. Ilmiy tadqiqot ishida yaratilishi ko'zda tutilgan SCADA tizimi umumiy ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan.


Simple Skada tizimi foydalanuvchi uchun masofadan o'lchov va ijrochi qurilmalarni ishini masofadan boshqarish va onlayn kuzatuv imkoniyatlarini oshiradi. Tadqiqot mavzusi ishlab chiqilgan SCADA tizimi "Tizimni ishga tushirish" yorlig'ini aktivlashtirish bilan boshlanadi. Ushbu yorliq aktivlashganda chastota o'zgartirgich

kuchlanish tarmog'iga ulanadi va tegishli algoritmlar asosida paxta pnevmotransporti asinxron elektrodvigateli ishga tushiradi (8- rasm).



7- rasm. Paxta pnevmotransporti mexatronik boshqaruv tizimi uchun SCADA platformasi

Paxtani pnevmotransport yordamida tashishda quvur uzunligi turlicha bo'lishi yuqorida ta'kidlangan edi. Elektr energiyasi sarfini maqbullashtirish maqsadida taklif etilayotgan invertorli dvigatel SCADA tizimi orqali boshqarilib, tashish masofasiga (quvur uzunligiga) mos ravishda tok chastotasini sozlaydi (8-rasm).



8-rasmda. Paxta pnevmotransportini mexatronik boshqaruv tizimi orqali SCADA platformasi yordamida masofadan boshqarish

Quvur ichiga EE-680 seryadagi sensorlik havo tezligini o'lvovchi datchik, EFM112 seryalik statik va dinamik bosimni o'lvovchi mikromanometir va anonometrlardan olingan ma'lumotlarni OWEN-100 kontrolleriga uzatadi. Uzatilgan ma'lumotlar kontroller qurilmasi orqali qayta ishlanadi hamda inverter Delta 750AB-A chastota o'zgartirishga buyruq beradi. Inverter qurilmasi 75 kVt li dvigatelni olingan ma'lumotlarga asosan energetik parametrlarini sozlaydi. PASCO672442 datchigi yordamida elektr dvigatel sarf quvvati o'lvovchi OWEN-100 kontrolleriga ma'lumotlar uzatiladi. Texnologik va energetik parametrlarning kiritik qiymatlarida dvigatel avtomatik tarzda elektr manbayidan uziladi.

Paxtani pnevмотransport yordamida tashishda quvur uzunligi turlicha bo'lishi mumkin, bu paxta xomashyosini separatoridan turli masofada bo'lishi bilan izohlanadi. Energiyadan samarali foydalanish maqsadida SCADA tizimi quvur uzunligiga mos ravishda chastota o'zgartirgichni sozlaydi. "Chastotani avtomatik tanlash" yorlig'i ishga tushishi bilan chastota o'zgartirgich qurilmasi asinxron dvigatelni kerakli miqdordagi tok kuchi va uning o'zgartirilgan chastotasi bilan ta'minlashni boshlaydi. Ta'minlash va to'xtatish vaqti chastota o'zgartirgich qurilmasi parametrlarini sozlash orqali amalga oshiriladi. "Chastotani kiritish" yorlig'i foydalanuvchi tomonidan chastota o'zgartirgichni chiqish signalidagi tok kuchi chastotasi qiymatini belgilash vazifasini bajaradi. "Quvur uzunligini kiritish" yorlig'i chastota o'zgartirgichni chastotasini maxsus hisoblash jarayolari bilan kerakli qiymatni aniqlash va ijrochi qurilmani ta'minlashga xizmat qiladi. Boshqa yorliqlar chastota o'zgartirgich va asinxron dvigatelni bir necha mexanik va elektrotexnik parametrlarini aniqlashga xizmat qiladi. Chastota o'zgartirgich yuritgichni ishga tushirish uchun avvaldan sozlangan bo'lishi zarurdir. Tadqiqotda foydalanilgan paxta pnevмотransporti asinxron elektr yuritgichini parametrlari quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Uch fazali elektrodvigatelning texnik parametrlari

Elektroyuritgich 75kVt, 1500 ayl/min		Qiymati
Texnik parametrlar guruhi	Texnik parametrlar nomi	
Chiqish parametrlari	Quvvat P , kVt	75
	Shartli stator aylanish tezligi, ayl/min	1500
	Valning nominal aylanish tezligi, ayl/min	1460
Quvvat parametrlari	Tok chastotasi, Hz	Uch fazali, 50
	Nominal tok kuchi, A	139/81
	Yuritgichni ishga tushirish tok kuchi, A	6,8
	Nominal kuchlanish, V	380
Yuritgich passport ma'lumotlari	Harakat prinsipi	Asinxron
	Quvvat koeffisienti, $\cos\varphi$	0,87
	Samaradorlik ko'rsatkichi, %	93,6
	Qutblar soni	4
	O'ramdagi mis massasi, kg	40-45
	Inersiya momenti, $kg \cdot m^2$	0.35
	Og'irligi	450-490

Paxta pnevmotransporti asinxron elektr yuritgichini matematik modellashtirish uchun Matlab dasturiy muhitiga kiritilgan Simulink paketida amalga oshirildi. Simulink-bu grafik simulyasiya muhiti bo‘lib, u yo‘naltirilgan grafikalar ko‘rinishidagi blok-diagrammalardan foydalanib, diskret, uzluksiz va gibridd, chiziqli bo‘lmagan va uzlikli tizimlarini o‘z ichiga olgan dinamik modellarni yaratishga imkon beradi. Simulink interaktiv muhiti elektrodinamika, mexanik va gidravlik tizimlarni modellashtirish uchun tayyor blok kutubxonalaridan foydalanishga imkon beradi, shuningdek boshqaruv tizimlari, raqamli aloqa vositalari va real vaqtda qurilmalarni ishlab chiqishda rivojlangan modelga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydi. Ushbu grafik muhit yetarli aniqlik bilan, bizning holatimizda, chastota o‘zgartirgich bilan boshqariladigan asinxron elektr yuritgichni modelini yaratishga imkon beradi.

Ta‘minlash va to‘xtatish vaqti chastota o‘zgartirgich qurilmasi parametrlarini sozlash orqali amalga oshiriladi. “Chastotani kiritish” yorlig‘i foydalanuvchi tomonidan chastota o‘zgartirgichni chiqish signalidagi tok kuchi chastotasi qiymatini belgilash vazifasini bajaradi. “Quvur uzunligini kiritish” yorlig‘i chastota o‘zgartirgichni chastotasini maxsus hisoblash jarayolari bilan kerakli qiymatni aniqlash va ijrochi qurilmani ta‘minlashga xizmat qiladi. Boshqa yorliqlar chastota o‘zgartirgich va asinxron yuritgichni bir necha mexanik va elektrotexnik parametrlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Paxta pnevmotransporti ventilyatorlarini chastota o‘zgartirgich bilan boshqarish SCADA mexatronik tizimini Simulink muhitida paxta pnevmotransporti asinxron yuritgichini chastota o‘zgaruvchi bilan tezlikni boshqarish, boshqarishni skalyar va vektorli boshqaruvi simulyasiya modeli ishlab chiqilib, NamMTI TTDIT kafedrasida ilmiy laboratoriyasiga o‘rnatildi. Eksperimental uskunasini 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Eksperimental uskuna umumiy ko‘rinishi

Eksperimental qurilma ishga tushirildi, ekspluatatsiyadagi kamchiliklari aniqlandi, bartaraf qilindi. Mexatronik tizim to‘liq ishga tushishi uchun chastota o‘zgartirgich pnevmotransport uskunasini ventilyatori energiya manbaiga SCADA platformasi asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minotga ega bo‘lgan invertor qurilmasi orqali ulandi.

